


SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
2024- yil yanvar-noyabr oylari**




**Tel.: 67-236-70-00
www.sirstat.uz**

Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xom-ashyoni qayta ishslash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 16958,3* mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,8 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



*viloyat umumiyo ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajjni hisobga olgan holda


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (341125,0 ming soʻm), oʻrtacha viloyat darajasi koʻrsatkichidan (18425,5 ming soʻm) sezilarli darajada yuqoriligini koʻrsatmoqda.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 9570,5 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 56,5 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Shirin shahri (39,0 %), Sirdaryo tumani (19,7 %), Boyovut tumani (7,3 %), Guliston shahri (7,1 %) hamda Yangiyer shahri (7,1 %) hissasiga tog'ri keldi.


Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Boyovut tumanida (114,8 %), Yangiyer shahrida (107,8 %) hamda Sardoba tumanida (108,7 %) kuzatildi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarini tomonidan 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 74,8 mlrd. so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,4 % ga to‘g‘ri keldi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9570,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 56,5 % ni tashkil etdi.



*Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat
ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlov berilgan bug'doy (qattiq bug'doydan tashqari)urug'i	Titilgan paxta chiqindilari (tolali ulyukdan tashqari)	Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolkalar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar
2024-y. 113,0	2024-y. 180,4	2024-y. 138,3
2023-y. 33,7	2023-y. 90,8	2023-y. 185,1
2022-y. 97,2	2022-y. 7,5 m	2022-y. 0,0
Yumshoq bug'doy uni		Sellyuloza
2024-y. 86,0		2024-y. 136,1
2023-y. 65,1		2023-y. 42,0
2022-y. 114,5		2022-y. 216,0

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,8 % ni (2023- yilning yanvar-noyabr oylarida – 4,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali –3,6 % (2,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 29,0 % (22,3 %), quyi texnologiyali 61,6 % (70,1 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 1,5 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 70,2 m), asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,8 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 157,5 %) hamda boshqa nometal mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 10,2 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,2 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 32,3 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,3 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 132,9 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 20,6 ming tonna paxta tolasi (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 25,0 % ga kamaygan), 12,5 ming tonna kalava ip (38,1 % ga kamaygan), 13,7 ming tonna kepak mahsulotlari (10,0 % ga kamaygan) hamda 32,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (14,0 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr	2024- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	3072,0	540,0	-2532
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	1389,9	1415,6	25,7
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	16,4	18,0	1,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	37,5	32,2	- 5,3
Aroq, 100% spirit ming litr	266,4	364,8	98,4

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoiy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 276,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamlar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 119,2 % tashkil qilib, shundan ishlab chiqarish hajmi 976,4 mlrd. so'mga to'g'ri keladi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 31,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 16,9 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 2985,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,2 martaga ko'payib ishlab chiqarish hajmi 101,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlar- dan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,8 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 27,0 % ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 1703,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,8 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 362,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 74,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 31,6 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,9 % ni, fizik hajm indeksi 147,2 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 759,0 mlrd. so'm kuzatildi.



Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (ehtiyyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statssionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblar uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko’rsatilgan metallar (ba’zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o’z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko’ra, mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,8 % ni, o’tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 27,6 % ga ko’payib ishlab chiqarish hajmi 362,9 mlrd. so’mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo’lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o’z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o’z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko’ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % ni, o’tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 70,2 martaga ko’payib ishlab chiqarish hajmi 147,9 mlrd. so’mni tashkil etdi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7213,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 112,0 % ni) tashkil etgan.



*Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi
hajmidagi ulushi*




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 113,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 80,1 % ni tashkil etdi.

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2023- yil yanvar-noyabr</i>	<i>2024- yil yanvar-noyabr</i>	<i>Farqi +/-</i>
Elektrenergiya, mln.kVt.s	14863,2	10834,0	-4029,2

<i>Issiqlik energiyasi, ming gkal</i>	129,2	182,0	52,8
---------------------------------------	-------	-------	------

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishslash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 99,7 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,6 % ga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlarda 4,8 % ga ko'paydi. Shuningdek, suvni yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 30,2 % ga ko'payishi kuzatildi.

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2023-yil yanvar-noyabr</i>	<i>2024-yil yanvar-noyabr</i>	<i>Farqi +/-</i>
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar mlrd. so'm	13,3	19,3	6,0

Suvni yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln. so'm	40,0	80,4	40,4
--	------	------	------

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)*



Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar mlrd. so'm



Suvni yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln. so'm

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra